

Ushbu tartib-qoidalar institut
Kengashining 2023 yil 05 iyuldagi
21-sonli yig'lishida muhokama
qilingan va tasdiqlangan.

“TASDIQLAYMAN”

Buxoro muhandislik-texnologiya
instituti rektori v.v.b.

M.Z.Sharipov

2023 yil

**TEXNIKUMLARNI MUVAFFAQIYATLI TAMOMLAGAN BITIRUVCHILARNI
2023-2024 O'QUV YILIDA BUXORO MUHANDISLIK-TEKNOLOGIYA INSTITUTI
BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARIGA SUHBAT ASOSIDA O'QISHGA
QABUL QILISH TARTIB-QOIDALARI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5812-son farmoni va O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 yanvardagi 17-son qarori bilan tasdiqlangan «Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida NIZOM» hamda O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi bayonlari ijrosini ta'minlash maqsadida, texnikum bitiruvchilarini bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilish haqidagi arizalari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining suhbat.edu.uz elektron platformasi orqali qabul qilinadi.

Qabul jarayoni, «Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida NIZOM» va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Suhbat jarayonini tashkil etishda qabul komissiyasining mas'uliyatini oshirish hamda oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchining oliy ta'lim muassasalarida 2- bosqichidan o'qishni davom ettirishi mumkin bo'lgan o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lim yo'nalishlari haqida ma'lumotlar taqdim etiladi (*o'qish bakalavriat ta'lim yo'nalishining ikkinchi kursdan boshlanadi*).

2. Texnikum bitiruvchisi (*keyingi o'rinlarda "abituriyent" deb yuritiladi*) o'qishni muvaffaqiyatli tamomlagan, texnikumdagi butun o'qish davrida o'quv semestrlari yakuniga ko'ra o'zlashtirish baholari «5 (a'lo)» va «4 (yaxshi)», biroq o'zlashtirish baholarining kamida 50 foizi «5 (a'lo)» bo'lishi shart.

3. **Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga** qabul qilish barcha uchun to'lov- kontrakt asosida belgilangan qabul qoidalar va suhbat asosida amalga oshirilib, suhbat natijalariga ko'ra 67 balldan yuqori ball to'plagan abituriyentlar qabul qilinadi.

4. Abituriyentlar ballar reytingi asosida belgilangan to'lov-kontrakt doirasida qabul qilinadilar. Abituriyentlar **bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga** kirish sinovlarini oliy ta'lim muassasasida o'qiydigan tilda topshiradilar.

5. Abituriyentlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi PF-5812-sonli «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 yanvardagi 17-son qaroriga asosan «Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim

yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida NIZOM", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi 930-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom"lar to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi.

6. **Bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga** kirish sinovi umumiy ballari quyidagilardan tashkil topadi:

Tanlangan ta'lim yo'nalishiga muvofiq keluvchi, mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan mavzularga mos savollar tuziladi;

a) **Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishi** (*tanlanayotgan ta'lim yo'nalishining mohiyati va mazmuni, ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy faoliyat turlari va kasbiy faoliyat ob'ektlari borasidagi islohotlar to'g'risida bilishi*) (maksimal 25 ball)';

b) **Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)**, (*tanlanayotgan ta'lim yo'nalishining jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqida ma'lumotga egaligi, shuningdek, aynan mazkur oliy ta'lim muassasasi va ta'lim yo'nalishini tanlashga undagan sabablar*) (maksimal 25 ball)';

v) **Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)**, (*O'z fikrini aniq-ravshan, mantiqiy va ijodiy bayon qila olish hamda o'z fikrini asoslay olish qobiliyati, individual psixologik xususiyatlarning tanlanayotgan ta'lim yo'nalishiga mosligi*) (maksimal 25 ball). ;

g) **Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi** (*tanlanayotgan ta'lim yo'nalishi va ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik, xalq xojaligidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotga egaligi, shuningdek, aynan mazkur oliy ta'lim muassasasi va ta'lim yo'nalishida oliy ma'lumot olgach uning strategik maqsadlari mavjudligi*) (maksimal 25 ball).

7. Abiturient bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga kirishda maksimal to'planishi mumkin bo'lgan ball 100 ballni tashkil etadi.

8. Abiturientlarning bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish chegarasi maksimal balning 67 %, ya'ni 67 ball hisoblanadi.

9. Ishchi guruh tarkibi va kirish sinovlari jadvali institut rektorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Institut qabul komissiyasi mas'ul kotibi



U.A.O'rinov

